


**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Amaliy matematika» kafedrası

**«Informatika va Axborot texnologiyalari»
fanidan
*Amaliy mashg`ulot darslari uchun***



Uslubiy qo`llanma

Uslubiy qo`llanma

Namangan -2015 y

Informatika va Axborot texnologiyalari fani bo'yicha Amaliy mashg'ulot ishlari to'plami

Tuzuvchilar:

Professor M.I.Badalov,

o'qituvchi E.Umarov.

Ushbu Amaliy mashg'ulot darslari uchun uslubiy qo'llanma filologiya yo'nalishi asosida, barcha gumanitar soha bakalavr yo'nalishi o'quv rejalaridagi «Informatika va axborotlar texnologiyasi» fani dasturiga mos tarzda tuzilgan bo'lib, u butun kurs materiallarini deyarli to'la qamrab olgan.

Tuzuvchilar tomonidan qo'llanmada keltirilgan har bir Amaliy mashg'ulot ning maqsad va vazifalari, kerakli vosita va tushunchalari berilganidan so'ng bajaruvchiga muayyan(konkret) topshiriq hamda foydalanish uchun adabiyotlar ko'rsatilgan. Bajaruvchiga qulaylik yaratish uchun topshiriqdagi vazifalarning ma'lumotlar ba'zasi bevosita bajaruvchining o'zi, oilasi, guruxi, o'qiyotgan fanining adabiyotlari yoki o'zi tanlagan(qiziqqan) yo'nalishdagi jarayon va ma'lumotlar bilan bog'langan. Bajarilgan ishni baholash belgilangan me'yorlar asosida shu mavzuga ajratilgan umumiy soatdan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi ko'rsatib qo'yilgan.

To'plamdagi har bir Amaliy mashg'ulot yo'nalishlarning davlat standartlari talablariga ko'ra fan dasturlari bo'yicha shu mavzu uchun ajratilgan soatlar doirasida va yo'nalishning xususiyatlarini hisobga olgan holda bajarish va baholash imkoniyatini beradi.

Amaliy mashg`ulot №1 (4 soat)

Mavzu: Windows Operatsion tizimida ishlash

Maqsad: Klaviatura bilan ishlashni va Windows operatsion sistemasida fayl va papkalr ustida amallar bajarish ko`nikmasini xosil qilish.

Texnik vosita: Komp`yuter va Windows operatsion sistemasi ta`minoti.

Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Klaviaturaning vazifasi.
2. Windows ishchi stol elementlari bilan tanishish.
3. Fayl va papka ustida amallar.
4. Windowsda ma'lumotlarni izlash.

Amaliy mashg`ulotning qisqacha mavzu bayoni

1. Klaviaturaning vazifasi.

Klaviatura 101-105 tugmachalardan iborat.



O`z vazifalariga ko`ra tugmachalar beshta guruhga bo`linadi:

1. Funktsional tugmalar.
2. Sonlar, belgilar va harflarni kirituvchi tugmachalar.
3. Yordamchi tugmachalar.
4. Yonaltiruvchi tugmachalar.
5. Xolatga qarab sonli yoki yo`naltiruvchi tugmalar vazifasini bajaruvchi tugmalar.

Funksional tugmalar klaviaturaning yuqori qismida joylashgan bo`lib, ular F1 dan F12 gacha. Ular muhitga qarab har xil vazifalarni bajaradi. F1 tugmasi har qanday joriy dastur haqidagi ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi. Ya'ni yordamchi vazifasini bajaradi.

Ikkinchi guruh tugmachalari klaviaturaning asosiy qismini tashkil qilib ular harflar, sonlar va turli belgilarni kiritish uchun mo`ljallangan.

Yordamchi tugmachalar.

Esc – xolatdan chiqish tugmasi.

TAB (tabulyatsiya so`zidan) - faqat pastdagi registrda ishlaydi va gap matn, hujjatlar haqida ketganda, kursorni o`ng tomonga, navbatdagi maxsus ko`rsatilgan (belgilangan) nuqtaga (pozitsiyaga) suradi. Bu tugmachaning qulayligi shundaki, uning yordami bilan jadvallar tuzish oson va matnni yozganda ham belgilangan pozitsiyadan boshlab terish mumkin. Tugmachalarni yuqori registrda bosganda, kursorni chap tomonga, belgilangan pozitsiyaga surish mumkin. Matn yozishdan boshqa xollarda bir darchadan boshqa darchaga o`tish vazifasini bajaradi.

Caps Lock (katta yoki kichik harflarga o`tish tugmachai) - yuqori registrga o`tish imkonini yaratib beradi. Haqiqatda esa ushbu tugmacha faqat harflar terish

tugmachalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, katta harflar kiritish imkonini yaratib beradi. Bu tugmachani bosib ushlab turish kerak emas. Ishlovchiga qulaylik yaratish maqsadida klaviaturaning o'ng burchagida yonib turadigan indiqatorlar joylashgan. Bu indiqatorlar rejimni ko'p vaqt davomida saqlab turadigan tugmachalar bilan bog'langan. Shularning ichida bittasi Caps Lock ga tegishli.

Shift (surish) - vaqtinchalik yuqori registrdan pastki registrga, yoki aksincha, pastki registrdan yuqori registrga o'tish imkonini beradi. Hammasi Caps Lock tugmachaning holati bilan bog'langan. Bu tugmachaning xizmati vaqtinchalik bo'lganligi sababli, boshqa tugmachalarning xizmatini o'zgartirish kerak bo'lsa, ularni bosish paytida Shift tugmachai vaqtinchalik bosib ushlab turiladi.

Ctrl (*Control* - boshqarish) - boshqa tugmacha bilan birga bosilganda, o'sha tugmachaning vazifasi o'zgaradi,

ALT (Alternative - o'zgartiruvchi) - bu tugmacha ham boshqa tugmachalar bilan birga bosilganda, o'sha tugmachaning ish vazifasini o'zgartiradi.

Umuman olganda Shift, Ctrl, Alt tugmalari ma'lum tugmalar kombinasiyasi bilan birgalikdagina aniq bir funtsiyani amalga oshiradi. O'zi mustaqil ravishda hech qanday funktsiyani amalga oshirmaydi.

 tugmasi Windows OS ning bosh menyusini tashkilotish uchun xizmat qiladi.

Probel (ehg uzun tugma) tugmasi bo'sh katak xisol qilish tugmasi hisoblanadi.

 bu tugma kursor turgan xolatdagi kontekst menyuni tashkil etadi.

Enter (kirish) - ma'lum bir OS mixitiga kirish yoki buyruqlarni tasdiqlash vazifalarini bajaradi. Bundan tashqari matn kiritish jarayonida, kursor yangi abzatsga (satrga) o'tadi.

BackSpace (Orqaga qaytish) - qaytarish tugmachasi. Bu tugmacha yordamida, matn terish paytida, ekrandagi kursordan chap tomondagi xato terilgan belgilarni o'chirish mumkin. Kursorning o'zi esa bitta belgi chap tomonga suriladi.

Print Screen (ekrandagi chop etish) - ushbu tugmacha ekranda bo'lgan ma'lumotni printerga chiqarib beradi.


PAUSE (vaqtinchalik to'xtash) - ushbu tugmacha bosilganda kompyuter o'z ishini vaqtincha to'xtatadi.

Scroll Lock (surishni saqlaydi) - bu tugmacha yordamida kursorni harakatga keltirmoqchi bo'lsangiz, kursor ekranga sakraydi. Bu tugmacha ham o'z holatini mustahkamlash (fiksatsiya) bilan bajaradi.

Insert – belgilash vazifasini bajaradi.

Delete – o'chirish tugmasi ob'ektlarni ochirishda xizmat qiladi. Matn kiritish jarayonida o'ng tomondagi belgilarni ochiradi.

Yo'naltiruvchi tugmalar.

 yuqoriga, chapga, pastga, o'ngga

Home – xolatning boshlangich nuqtasiga olib keladi.

End – xolaning oxirgi nuqtasiga olib keladi.

Pega up – saxifani yuqoriga varaqlaydi.

Page down – saxifani pastga varaqlaydi.

Beshinchi guruh tugmalari o'z-o'zidan Num Lock tugmasi funksiyasiga bog'liqdir. Bu tugma bosilganda, ya'ni indikator yoniq turgan xolatda, bu guruh tugmalari sonli kattaliklar kiritish vazifasini bajaradi. Aks xolda yo'naltiruvchi tugmalar vazifasini bajaradi. Bu tugmalarni aloxida guruh qilib, o'ng tomonga joylashtirilishga sabab hisob-kitob jarayonida kal'kulyator vazifasini ham bajarishidir.

2. Windows ishchi stol elementlari bilan tanihish.

Windows ishchi stolini tuzilishi quyidagicha Мойкомпьютер, Сетевое окружение, Корзинава masalalar panelidan iborat.



Bosh menyu(Пуск) ko`rinishi 2 xil: Меню «Пуск», Классическое меню «Пуск».

Bosh menyuni qisqacha tuzilishi quyidagicha:

Программы – Barcha o`rnatilgan dasturlar majmua;

Документы – Oxirgi 15 ta ishlatilgan fayllar ro`yhati;

Настройка – Windows konfiguratsiyasi va qurilmalarini o`rnatish va sozlash;

Найти – Ma'lumotlar va ob'yektlarni izlash;

Справка и поддержка – Windows yordam ma'lumotlar bloki;

Выполнить – Standart dasturlar va ishchi fayllarni ishga tushirish;

Выключить компьютер – Windows OS ni dasturini yakunlash

3. Fayl va papka ustida amallar.

Fayl va kataloglar bilan ishlash. Fayllarni ko`chirish va nusxasini olish uchun quyidagilarni bajarish kerak:

- Nusxasi olinadigan va ko`chiriladigan faylni ajratish.

- Oynadagi Asboblar panelidan nusxa olish uchun "Buferga nusxasini ko`chirish" (Copy) asbobini, ko`chirish uchun esa Вырезать/Cut-"Buferga ko`chirish" asbobini tanlash.

- Fayl nusxasi joylashtiriladigan qurilma yoki papkani tanlash.

- "Asboblar paneli"dan "Buferdan olib qo`yish" (Paste) asbobini tanlash.

Fayl nomini o`zgartirish

Moy komp'yuter yoki Provodnik oynalarida quyidagilarni bajarish kerak:

- Nomi o`zgartiriladigan fayl yoki papka tanlanadi.

- Fayl nomi yoki papka nomi ustida "sichqoncha" tugmasi bir marta bosiladi.

- Yangi nom klaviatura yordamida kiritiladi.

- Enter bosiladi.

Fayllarni yo`qotish. Klaviaturadan Delete klavishini bosiladi yoki faylmenyusining Udalit' - Yo`qotish buyrug`i tanlanadi, yoki asboblar panelidagi "Buferga ko`chirish" asbobi bosiladi. ekranda chiqarilgan so`rovga qilayotgan ishingizni tasdiqlash uchun Da (Xa) tugmasini bosib javob beriladi.

Yo`qotilgan fayllarni qayta tiklash uchun:


- Ish stolidagi Korzina belgisi ustida "sichqoncha" chap tugmasi ikki marta bosiladi. ekranda Korzina oynasi ochiladi.


- Oynadagi yo`qotilgan fayllar ro`yxatidan keraklisini topib, uni ajratish kerak.

- fayl menyusidan **Восстановить** - "Qayta tiklash" buyrug`i tanlanadi. Buning o`rniga fayl nomida "sichqoncha"ning o`ng tugmasini ham bosish mumkin. Ochilgan kontekst menyudan **Восстановить** buyrug`i tanlanadi.

4. Windowsda ma'lumotlarni izlash.


Windowsda ma'lumot izlash oynasini chaqirishni 3 xil usuli mavjud:

1. Klaviaturadan **F3** yoki  + **F** tugmalar orqali;
2. bosh menyudan Пуск→Найти(Поиск) orqali;
3. Ixtiyoriy ob'yekt yoki parkani ochgandan so`ng Asboblar panelidan



tugmasi orqali ishga yushirish mumkin.

Qidiruv muloqot oynasi chaqiriladi.



Muloqot oynaning o`ng panelida qanday tartibdagi ma'lumotni izlash haqida punktlar mavjud. Ularni quyidagicha tavsiflab o`tamiz.

- Изображения, музыка и видео – ushbu band orqali barcha turdagi audio, video va tasvirli ma'lumotlar qidirish;
- Документы (текстовые файлы, электронные таблицы и т.д.) – Barcha turdagi matnli, electron jadval va HTML turdagi ma'lumotlarni izlash;
- Файлы и папки – Barcha turdagi fayllarni (qismi, kengaytmasi va xokozo) qidirish;
- Компьютеры и людей – Lokal tizimga ulangan kompyuterlar yoki Internet orqali Insonlarni qidirish;
- Информацию о центрах справки и поддержки – Windows yordam olish tizimi orqali ma'lumot izlash;
- Выполнить поиск в Интернете – Internet orqali qidirishni amalgam oshiradi.

Masalan 27.08.2010 sanada yozilgan matnli fayllarni qidirish uchun qidiruv muloqot oynasidan

Файлы и папки punktidan **Часть имени файла или имя целиком** ga

*.doc **Когда были произведены последние изменения** → **Указать диапазон** **гас** 27.08.2010 , **по** 27.08.2010 yozib qidirish mumkin.

Topshiriqlar.

1. O`z tarjimai holingizni to`liq va to`g`ri kiriting.
2. Ishchi stolda yangi yorliq yarating.
3. Yorliq manzilini aniqlang .
4. Talaba.doc faylini student.doc nomli faylga o`zgartiring.
5. Talaba.doc fayli to`g`risida ma'lumotni ekranga chiqaring.
6. Masalalar paneliga Talaba.doc faylini joylashtiring.

7. Keraksiz fayllar guruhini Korzina dan tozalang.
8. C diskga NamDU papkasini hosil qiling.
9. NamDU papkasiga bir necha fayllarni ko`chiring.
10. Talaba.doc faylini qidirish usullarini ko`rsating.
11. Fayl atributlarini o`rnatish va olib tashlash .(guruh, yakka tartibda)
12. Talaba.doc faylini A diskka ko`chirish usullarini ko`rsating.
13. Talaba.doc faylini o`chirish usullarini ko`rsating.
14. NamDU papkasidagi fayllarni tartiblang.(sana,hajmi,nomi)
15. Matnli fayllar aniqlang.

Amaliy mashg`ulot №2 (2 soat)

Mavzu: RAR va ZIP arxivlash dasturlari bilan ishlash. Antivirus dasturiy vositalari bilan ishlash. Shikastlangan fayl va disklarni tiklash, disklarni fragmentatsiyasini yo`qotish.

Maqsad: Windowsda axborotlarni ixchamlash va himoyalashni o`rgatish.

Texnik vosita: videoproektor, Pentium 4 kompyutlari, Windows, Winrar dasturi, Antivirus **programma** ESET Smart Security dasturi .


Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. WinRAR dasturi bilan ishlash.
2. ESET Smart Security dasturi da himoyalinish.

Amaliy mashg`ulotning qisqacha mavzu bayoni.

1. WinRAR dasturi bilan ishlash.

Dastlab WinRAR dasturini ishga tushiramiz



Qurollar panelidagi asosiy buyruqli tugmalar bilan tanishib o`tamiz:



Добавить – fayl, papka yoki diskdani barcha ma`lumotni arxivlash tugmasi;



Извлечь в – arxiv faylni ochish tugmasi;



Тест – arxiv faylni testdan o`tkazadi;



Просмотр – arxiv faylni tarkibini ko`rish;



Удалить – arxiv fayli yoki arxiv tarkibidagi fayl yoki papkani o`chirish;



Исправить – tarkibi buzilgan arxiv faylini to`g`rilash;

Файл menyusida arxiv faylni ochish, disklar turi tanlash, parol qo`yish va boshqa amallar bajarish mumkin.


Команды menyudan ma`lumotlarni arxivlash va arxivdan chiqarish va vazifalarni bajarishi mumkin.

Masalan; **talaba.doc** faylining hajmi **589 Kb** shuni arxivlanganda **talaba.rar** uning hajmi **84 Kb** tashkil qiladi. Demak arxivlashdan maqsad kompyuter xotirasidan unumli foydalanish.

2. ESET Smart Security dasturi da himoyalani.

Dastlab **ESET Smart Security** muloqot oynasini chaqirib olamiz; 2 xil usulda chaqirish mumkin:

- 1) Пуск → Программы (Все программы) → ESET → ESET Smart Security → ESET Smart Security;
- 2) Masalalar panelidan  → Контекст меню → Открыть окно;



Dastlab antivirus bazani yangilab olamiz; Настройка → Ввод всего дерева расширенных параметров → o`ng paneldan обновление → Изменить → Серверы обновления ga agarda internetga ulangan bo`lsa <http://nod32.nnm.uz/> tartibda, ulan,agan bo`lsa antivirus baza papka joylashgan adres ko`rsatiladi → Добавить → Выбрать автоматически dan adres tanlanadi → Ok. O`ng paneldagi Обновление punktiga o`tib Обновить базу данных сигнатур вирусов sich qonchani chap tugmasi bir marta bosiladi, baza yangilangandan so`ng → Ok bosiladi.

Virusga tekshirish uchun Сканирование ПК ni tanlanganda sizga 2 ta taklif kiritadi;

1. Сканирование Smart – Bu butun kompyuterni to`liq virusga tekshiruvdan o`tkazadi.
2. Выборочное сканирование – Operativ xotira, yumshoq va qattiq diskarni tanlangan holda virusga tekshiradi.

Masalan, yumshoq disk ustida Kontekstmenu → Сканировать программой ESET Smart Security yoki Kontekstmenu → Расширенные функции → Очистка файлов orqali virusdan tozalash mumkin.

Topshiriqlar:

1. WinRAR dasturini ishga tushiring.
2. Menyular satri va uskunalari panellari bilan tanishtiring.
3. "Kitoblar" papkasini arhivlang.
4. Arhivlangan faylga "Talaba.doc" faylni qo`shing.
5. Arhiv faylni kengaytmasini *.rar dan *.zip ko`rinishida maksimal darajada arhivlang.
6. Arhivdagi fayllarni testdan o`tkazing.
7. Arhivdagi "Talaba.doc" faylni MS WORD dasturi orqali ishga tushiring.
8. WinRAR dasturini parametrlarini sozlang.
9. Arhivli fayllarni tekshiring.
10. ESET Smart Security antivirusni kompyuterga o`rnatib.
11. Antivirus bazani yangilang.
12. Opreativ xotirani virusga tekshiring.
13. Kompyuterni to`liq virusga tekshiring va kuzatib tahlil qiling.
14. Internet orqali ma'lumotlarni virusga tekshiring.
15. Tekshiruv tugagandan so`ng umumiy hisobot oling.

Amaliy mashg`ulot №3 (4 soat)

Mavzu: Windows standart dasturlari.

Maqsad: Windows standart dasturlardan maqsadli foydalanishni o`rgatish.

Texnik vosita: videoproektor, Pentium 4 komp'yutlari, Windows OS va Windows standart dasturlari.

Amaliy mashg`ulot rejasi:


1. WordPad matn muharriri bilan ishlash
2. Kalkulyator dasturi bilan ishlash.
3. Paint grafik muharrir bilan ishlash.

Amaliy mashg`ulotning qisqacha mavzu bayoni.


1. WordPad elementlari bilan tanishish, menyular satri va uskunalari paneli bilan ishlash.
2. Matn va uning bo`laklari ustida ko`chirish, nusxalash va o`chirish amallari bilan ishlash

Amaliy mashg`ulot mavzu bayoni:

WordPad matn muharriri «Стандартные» bo`limida joylashgan bo`ladi. **Matn muharririni** ishga tushirish uchun «ПУСК» tugmasi yordamida «Программы» bandiga kiriladi va so`ngra «sichqoncha» ko`rsatkichi yordamida «Стандартные» tanlanadi. Natijada ekranda «Стандартные» oynasi hosil bo`ladi. Bu oynadan WordPad matn muharririni tanlab sichqonchani chap tugmasini bosish natijasida matn muharriri ochiladi.



Bu oynaning ko`rinishi quyida keltirilgan:



Matn muharriridan chiqish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:


- «Alt»+ «F4» tugmalari birgalikda bosish bilan.
- «Файл» menyusining Выход buyrug`ini tanlab.

Oynaning o`ng burchagidagi  belgiga «sichqoncha» ko`rsatkichini olib borib, chap tugmani bir marta bosish bilan.

Oynaning tarkibiy qismi


1. Sarlavha satri.
2. Yopish tugmasi (Close).
3. Menyusatri.
4. Uskunalar paneli.
5. Gorizontallineyka surgichlari.
6. Oyna chegaralari.

WordPad oynasi yuqori qismida sarlavha satri joylashadi:



WordPad oynasi yuqori qismida sarlavha satrining o`ng burchagida esa quyida ko`rsatilgan oynalar joylashgan:

 joriy oynaekaranpastigaolibqo`yishuchunishlatiladi.

 joriyoynannikattalashtirishyoki yanao`zxolatigakeltirishuchunishlatiladi.

 joriyoynani yopishuchunishlatiladi

Sarlavhasatridanso`ng menyusatrijoylashadi:

Menyusatrifunksionalbelgilarigako`rabirlashtirilganmenyunomlari, ya`nibuyruqlarguruhlarinomlariniko`rsatibturadi. Menyuda WordPad da bajarilishi mumkin bo`lgan barcha buyruqlar keltirilgan. Menyubolimini tanlansa, shubolimiga tegishli buyruqlar ro`yxati paydo bo`ladi.

Menyuning **Файл** lentasida yangi hujjatni tayyorlash uchun yangi oyna ochish, oldingi saqlangan fayllarni xotiradan chaqirish, tayyorlangan xujjatni nom berib saqlash, barcha oynalardagi hujjatlarni saqlash, kerakli faylni qidirib topish, sahifalar tartibini o'zgartirish, matnning sahifada qanday joylashganligini oldindan ko'rish, matni chop etish, matn muharriridan chiqish, dastur xaqida ma'lumot olish kabi bir qator ishlarni amalga oshirish mumkin

Menyuning **Главная** lentasida **Буферобмен** bo'limida belgilangan joyni qirqib olish, nusxa olish va kerakli joyga qo'yish; **Шрифт** bo'limida yozuv tili, o'lchami, rangi, yozuvni bosh va kichik harflarga o'tkazish; **Абзац** bo'limida matnlarni tekislash (o'ng, chap, markaz bo'yicha, abzatslar tashlash, intervallar (1, 1.15, 1.5, 2), matni markerlash va ro'yhatlash; **Вставка** bo'limida rasmlar, ob'yekt va sanalar joylashtirish; **Правка** bo'limida operatsiyalarni matndan kerak so'zni topish va uni almashtirish kabi amallarni bajarish mumkin.

Menyuning **Вид** lentasida **Масштаб** bo'limida mashtabni o'zgartirish, **Показать/лискрыть** bo'limida lineyka va xolat satrini ko'rsatish yoki olib tashlash, **Параметры** bo'limida so'zlarni bo'shga ajratish usullari va lineykaning o'lchov birliklarini o'z ichiga olgan.

? **Справка** (Yordam, HELP) menyusiga oid buyruqlar va ularning tavsifi: Ko'rsatma mundarijasini berish..











Menyu satrlaridan so'ng asboblardan paneli joylashadi. Bu panellar turli tugmalardan tashkil topgan, har bir tugma **WordPad** muharririning biror buyrug'ini anglatadi. Buyruq bajarilishi uchun panelning mos tugmasi ustida «sichqoncha» tugmasini bosish kerak bo'ladi.








Chizg'ich. Chizg'ich yordamida matn abzatsini kengligini o'zgartirishingiz mumkin. Chizg'ich o'rnatish yoki o'chirish uchun «ВИД» menyusining **Линейка** buyrug'idan foydalaniladi. Chizg'ichlarni ishlatish o'zgartirish kerak bo'lgan abzats yoki abzatslarni tanlab, mos ravishda markerlar o'zgartiriladi.



Masalalar paneli

Masalalar panelida hamma faol ochilgan ilovalarning piktogrammalari doimo ko'rinib turadi, shuning uchun ulardan ixtiyoriysiga «sichqoncha» yordamida o'tish mumkin.

 - Yangi hujjat tashkil qilish;  - Xotiradan faylni chaqirish;  - Faol hujjatni xotirada saqlash;  - Faol hujjatni chop qilish;  - Hujjatni chop qilishdan oldin ko'rish;  - Belgilab olingan ma'lumotni qirqib buferga olish;  - Belgilab olingan ma'lumotning nusxasini buferga olish;  - Buferdagi ma'lumotni hujjatga qo'yish;  - Bitta harakat orqaga qaytish;  - Harf

o`lchamini o`zgartiradigan darcha;  - Qalin shriftni tanlash;  - Og`ma shrift tanlash;  - Tagiga chizilgan shriftni tanlash;  - Tekstni chap tomonga taqab yozish;  - Tekstni o`rtaga yozish;  - Tekstni o`ng tomonga taqab yozish;  - Abzatsga marker qo`yish.

WordPad da ma`lumot kiritish usullari, ma`lumotlarni ajratib olish va nusxa olish, ma`lumotlarni almashtirish, yangi hujjatlar yaratish, saqlash usullari.







Ma`lumot kiritish usullari: Ma`lumotlarni klaviatura orqali kiritish mumkin. Boshqa qurilmalar orqali kiritish mumkin. Agar klaviatura ishlamasa sichqoncha orqali yozish mumkin. Ekran klaviaturasini ishga tushirib olishimiz mumkin.

Quyidagicha Пуск → Программы → Стандартные → Специальные возможности → Экранная клавиатура.

Ma`lumotlarni ajratib olish va nusxa olish: Ma`lumotlarni ajratish usullari quyidagicha;


a) belgini ajratib olish sichqona chap tugmasini bosgan holda chap yoki o`ng tomonga tortib boriladi. Klaviaturadan: **Shift** +  yoki .

b) So`zni ajratib olish uchun so`z ustida sichqona chap tugmasini tez ketma-ket 2 marta, klaviaturadan: **Ctrl** + **Shift** +  yoki .


c) Bir abzats ma`lumotlarni sichqonchadan chap tugmani ketma-ket 3 marta bosish orqali yoki ma`lumot boshlash joydan sichqoncha chap tugmasini bosgan holda ajratiladigan ma`lumot oxirigacha sichqoncha ko`rsatkichini olib borib chap tugmani quyib yuborish mumkin. Klaviaturadan abzats boshiga(oxiriga) kursorni olib kelib **Ctrl**+**Shift**+ (**Ctrl**+**Shift**+) yoki **Shift** tugmasini bosgan holda abzats oxiri(boshi)ga sichqoncha chap tugmani bir marta bosish mumkin. **Shift** + (, , , ) tugmalar orqali bajarish mumkin.



d) Ekranida ko`rinib turgan ma`lumotni ajratib olish uchun **Shift** + **PageUP**(**Page Down**).

e) Hammasini ajratib olish usuli: Menyudan: Главная → Правка → Выделить все. Klaviaturadan: **Ctrl**+**A** orqali bajarish mumkin.


Ajratilgan ma`lumotdan nusxa olish usullari: a) Asosiy menyudan Главная → Буфер обмена →  Копировать. b) Ajratilgan ma`lumot ustida Kontekstmenyu → Копировать c) Klaviaturadan: **Ctrl**+**C** yoki **Ctrl**+**Insert**.

Ma`lumotni qirqib olish uchun a) Asosiy menyudan Главная →

Буфер обмена →  Вырезать. b) Ajratilgan ma`lumot ustida Kontekstmenyu → Вырезать. c) Klaviaturadan: **Ctrl**+**X**. Qirqib olingan ma`lumot Office buferida saqlanadi.

Ma`lumotlarni o`chirish usullari. a) O`ng (Chap) tomondagi belgini klaviatura orqali **Del** yoki **Delete**(-**Backspace**). b) o`ng(chap) so`zni o`chirish uchun **Ctrl**+**Delete**(-**Backspace**).

Ma`lumotlarni almashtirish: Avval almashtirish mumkin bo`lgan so`zni ajratib olinadi. Asosiy menyudan Главная → Правка → Заменить yoki Klaviaturadan **Ctrl**+**H** orqali quyidagi muloqot oyna chiqadi.



Ushbu muloqot oynada quyidagi buyruqlar vazifasi bilan tanishib o'tamiz:

Найти – Qidiriladigan so'z yoki jumlani kiritish maydoni;

Заменитьна – Yangi so'z yoki jumlani kiritish maydoni;

Заменить – Har bir so'z yoki jumalani foydalanuvchi tomonidan asosida almashtirish tugmasi;


Заменитьвсе – Har bir so'z yoki jumalani avtomatik so'rovsiz almashtirish tugmasi;

Найтидалее – Заменить tugmasi asosida navbatdagi so'zni qidirishga o'tish mumkin bo'lgan tugma;

Yangi hujjatlar yaratish usullari: a) Asosiy menyudan Файл → Создать; b) Klaviaturadan **Ctrl+N** tugmasi orqali amalga oshirish mumkin.

Saqlash usullari: a) Asosiy menyudan: Файл → Сохранить yoki Сохранитькак →Имяфайла: faylga nom beriladi → Сохранить (Сохранить va Сохранитькак buyruqlarini farqi Сохранить buyrug'ida agar faylga nom berilgan bo'lsa, shu nom bilan aks holda yangi nom bilan saqlaydi; Сохранитькак buyru'gida faylni yangi nom bilan saqlashni tavsiya etadi); b) Klaviaturadan **Ctrl+S** tugmasi orqali amalga oshirish mumkin.

2. Kalkulyator dasturi bilan ishlash. Kal'kulyator-cho'ntak kal'kulyatori vazifalarini bajarib, 4 xil rejimda: oddiy, muxandislik, dasturchi va statistika variantida ishlash imkoniyati mavjud.



Oddiy kal'kulyator to'rt arifmetik amalni bajaradi, berilgan qiymatlardan ildiz chiqaradi, foizni hisoblaydi. Muxandislik kal'kulyatori, bundan tashqari trigonometrik

va mantiqiy funktsiyalarni hisoblaydi, qiymat va burchaklarni turli sanoq sistemalariga o`tkazish va boshka vazifalarni bajaradi.

Kal`kulyatorni ishga tushirish uchun **Пуск** tugmasida

Программы, Стандартные ketma-ketligida Kal`kulyator bandi faollashtirildi.

Mazkur dastur o`z menyusiga ega bo`lib, u uchta bo`limdan iborat:

- 1) **Вид**
- 2) **Правка**
- 3) **Справка**

Правка bo`limi yordamida kiritilayotgan ifodalarning nusxasini olish va zarur bo`lgan joylarga qo`yish mumkin.

Вид bo`limida kal`kulyatorning oddiy, muxandislik, dasturchi va statistika ko`rinishlari tanlanadi.

Справка bo`limida kal`kulyatorni samarali ishlatish uchun zarur ma`lumotlar jamlangan.

Kal`kulyatorning qiymatlarni kiritish darchasidan so`ng qiymatlarni 16,10,8 va 2 lik sanok sistemalariga o`tkazish va burchaklarni radian va graduslarda berish uchun mo`ljallangan. **Nex, Dec, Oct, Bin** tugmalari alohida qatorda jamlangan. Bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o`tishda haqiqiy sonlarning kasr qismi tashlab yuboriladi.

Kal`kulyator funksional tugmalarining vazifalarini va klaviaturada mos tugmalarni jadval ko`rinishida aks ettiramiz.

Tugma	Tugmalar majmui	Vazifasi
Sta	Ctrl+S	Statistik hisob va Ave S Sum va dat ni ishga tushirish
Ave	Ctrl+A	Qiymatlar, Inv Ave esa kvadratlar o`rta arifmetigini hisoblash
Sum	Ctrl+T	Qiymatlarning Inv+ Sum kvadratlar yig`indisini hisoblash
S	Ctrl+D	Qiymatlarning o`rtacha farqlanishini hisoblash
Dat	Ins	Qiymatni statistika darchasiga kiritish
Inv	I	Trigigonometrik, statistik, darajali funktsiyalarning teskarisini aniklash
Hyp	H	Sin, cos, tg funktsiyalarni giperbolik ko`rinishga o`tkazadi
Mc	Ctrl+L	Xotiradagi qiymatni yo`qotadi
Mr	Ctrl+R	Xotiradagi qiymatni ko`rsatadi
Ms	Ctrl+M	Qiymatni xotiraga kiritish
M+	Ctrl+P	Qiymatni xotirada ko`shadi
F-E	V	Qiymatning tabiiy yoki eksponentsial ko`rinishi
dms	M	10 lik sanoq sist. burchakni grad.-min.-sek. o`tkazish

X^y	Y	X ni U darajaga ko`tarish
1/x	R	X ga teskari qiymatni topish
N!	!	Faktorialni hisoblash
Mod	%	Qoldiqni hisoblash
And	&	Mantiqiy ko`paytirish
Or		Mantiqiy qo`shish
Xor	^	Inkorli mantiqiy qo`shish
Lsh	<	Chapka razryadli siljitish
int	;	Haqiqiy sonning butun qismi

Vazifasibelgilanishiorkalianiqko`rsatilgantugmalarustidato`xtalmadik.
Kal`kulyatorda amallar bajarish tartibi haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz:

Oddiy hisoblashlarni bajarish.

1. Birinchi qiymatni kiriting.
2. Arifmetik amal tugmalarini bosing.
3. Keyingi qiymatni kiriting.
4. Qolgan operator va qiymatlarni kiriting.
5. " " tugmasini bosing.

Statistik hisoblashlarni bajarish.

1. Birinchi qiymatni kiriting.
2. **Sta** va **Dat** tugmalarini ketma-ket bosing.
3. **Dat** tugmasini har safar bosib, qolgan qiymatlarni kiriting
4. **Sta** tugmasini bosing.
5. Zaruriy statistik funktsiyaning tugmasini bosing.

Muxandislik hisoblashlarni bajarish

1. Sanoq sistemasini tanlang.
2. Birinchi qiymatni kiriting.
3. Kerakli opertorni tanlang.
4. Keyingi qiymatni kiriting.
5. Keyingi operator va qiymatlarni kiriting.
6. " " tugmasini bosing.

Shunday qilib, kal`kulyator erdamida uncha murakkab bo`lmagan statistik va muhandislik hisoblashlarni bajarish mumkin.

Sanoq sistemaga doir topshiriqlarni bajarish uchun **Вид**→**Програмистор** qali amalga oshiriladi.

Misol: $111011_2 + 3764_8 = X_{16}$. Hisoblab X raqamlarni aniqlang.

Yechish:

- 1) **Bin**(ikkilik s/s) buyrugini tanlab 111011 raqami kiritiladi, keyin **Oct**(sakkizlik s/s) berish kerak. Natijada ekranda 73 hosil bo`ladi.
 - 2) "+" tugmasi va 3764 raqami kiritiladi va enter tugmasi bosilsa, ekranda 4057 qiymat hosil bo`ladi.
 - 3) **Hex**(o`n oltilik s/s) buyrug`i berilsa kifoya, natija 82F qiymati hosil bo`ladi.
- Natija:** $111011_2 + 3764_8 = 82F_{16}$
Boshqa misollarni shu kabi tartibda yechib boriladi.

Paint grafik dasturi. Dasturni ishga tushirish uchun Пуск→Программы→Стандартные→Paint yoki Пуск→Выполнить→mspaint yoziladi→OK.

Tasvirlar hosil qilish va ular ustida amallar.

Ekraning chap kismida joylashgan uskunalar majmuasi yordamida tasvirning kerakli elementlarini hosil qilish, ajratib olish, nusxalash yoki o'zgartirish mumkin.

Tasvir o'lchamlarini o'zgartirish.

1. «**Главная**» лентасидан «**Изменить размер**» buyrug'ini tanlang.
2. Tasvirning eni va bo'yining o'lchov birliklarini tanlang.
3. **Изменить** бўлимидан «**По горизонтали**» va «**По вертикали**» maydoniga qiymatlarni kiriting.

Tasvirning o'lchamlarini o'zgartirishni pastki o'ng burchakdagi tasvirning o'ng va pastki chegaralarining o'rtasida joylashgan markerlarning yuqin o'zgartirish bilan ham amalga oshirish mumkin.

Masshtabni o'zgartirish va o'zgartirish.

«**Главная**» лентаси «**Инструменты**» бўлимидан «**масштаб**» buyrug'ini o'zgartirishni o'zgartirishni koniyatim mavjud.

Rangli tasvirni oq-qora tasvirga o'tkazish.

1. «**Рисунок**» menyusida «**Атрибуты**» buyrug'ini tanlang.
 2. **Палитра** guruhida «**Чёрно-белая**» ni tanlang.
- Rangli Палитра tanlanganda oq-qora ob'ektlar rangli tasvirlarga aylanmaydi. Faqat yangi tasvirni rangli qilish mumkin.

Tasvir ranglarini kontrast qilish uchun «**Рисунок**» buyrug'idan so'ng «**Обратить цвета**» bo'limini tanlash kerak.

Ob'ekt yoki tasvirni akslantirish va burish.

1. Uskunalar panelida to'g'ri to'rtburchak yoki ixtiyoriy shakldagi sohani ajratuvchi tugmachani tanlang.
2. Akslantirish yoki burish kerak bo'lgan elementni tanlangan soha ishiga oling.
3. Uskunalar paneli ostida paydo bo'lgan ikkita belgidan birini tanlang;
 - a) ob'ektning shaffof bo'lmagan ob'ekt sifatida akslantirish yoki burish uchun yuqaridagi belgi ustida sichqoncha tugmasini bosing.
 - b) ob'ektning shaffof bo'lgan ob'ekt sifatida akslantirish va burish uchun pastdagi belgi ustida sichqoncha tugmasini bosing.
4. «**Рисунок**», «**Отразит**», «**Повернуть**» buyrug'ini tanlang.
5. Kerakli parametrlarni tanlang; **повернуть сверху-вниз, слева право** 90, 180, 270 gradusga.

Tasvirni cho'zish va og'dirish.

1. Uskunalar panelida to'g'ri to'rtburchak yoki ixtiyoriy shakldagi sohani ajratuvchi tugmani tanlang.
2. O'zgartirilgan elementni tanlangan soha ichiga oling.
3. «**Рисунок**» menyusida «**Растянуть**», «**Наклонить**» buyrug'ini tanlang.
4. Cho'zish yoki og'dirish parametrlarini tanlang va ularning sonli qiymatini kiriting;» **Растянуть по горизонтали, вертикали** %», «**Наклонить по горизонтали, вертикали** %».

5. Uskunalar panelining pastki qismida paydo bo'ladigan belgilardan birini tanlang;

a) ob'ektni shaffof bo'lmagan ob'ekt sifatida cho'zish yoki og'dirish uchun yuqaridagi belgi ustida sichqoncha tugmasini bosing.

b) ob'ektni shaffof ob'ekt sifatida cho'zish yoki og'dirish uchun pastdagi belgi ustida sichqoncha tugmachasini bosing.

Tasvirni olib tashlash.

1. Agar tasvirning biror qismi ajratilgan bo'lsa unda tashqaridagi ixtiyoriy joyda sichqoncha chap tugmachasini bosing.

2. «**Рисунок**», «**Очистить**» buyrug'ini tanlang.

Eslab qoling! Tasvirning ajratilgan qismi uchun «**Очистить**» buyrug'i ishlamaydi.

O'zgartirishlarni bekor qilish.

«**Правка**» menyusidan «**Отменить**» buyrug'ini tanlang.

Foydalanuvchi ketma-ket «**Правка**» menyusidagi «**Отменить**»

buyrug'ini tanlash orqali oxirgi bajarilgan uchta uzgartirishlarni bekor qilishi mumkin.

Tasvir bulagini (fragmentini) ajratish.

1. Uskunalar panelidagi to'g'ri to'rtburchak sohani ajratish tugmachasini tanlang.

2. Sichqoncha ko'rsatkishini sichqonchani tugmachasini bosgan holda ajratilgan soha ustida diagonal buyicha olib o'ting.

Tasvirlar yoki uning biror bo'lagini ajratish uchun uskunalar panelidagi ixtiyoriy sohani ajratish tugmachasidan ham foydalanish mumkin.

Ajratishni bekor qilish uchun ajratilgan sohadan tashqarida ixtiyoriy joyda sichqoncha chap tugmachasini bosing.

Tasvir bo'lagini nusxalash yoki joylashtirish.

1. Uskunalar panelida to'g'ri to'rtburchak yoki ixtiyoriy sohani ajratuvchi tugmachani tanlang.

2. Nusxa olinuvchi tasvirning bo'lagini tegishli soha ichiga oling.

3. Joylashtirish usulini tanlang.

a) uskunalar paneli ostidagi yuqari belgi ustida sichqoncha belgisini joylashtirib, uning chap tugmachasini bosing

shaffof bo'lmagan bo'lakcha joylashtiriladi.

b) uskunalar paneli ostidagi quyi belgi ustida sichqoncha belgisini joylashtirib, uning chap tugmachasini bosing shaffof bo'lgan bo'lakcha joylashtiriladi.

4. «**Правка**» menyusida «**Копировать**» buyrug'ini tanlang.

5. «**Правка**» menyusida «**Вставить**» buyrug'ini tanlang.

6. Tasvir bo'lagini kerakli joyga olib borib quying.

Eslab qoling! «**Надпись**» tugmachasi bosilgan bo'lsa tasvirni joylashtirib bo'lmaydi.

Ob'ektning bir nechta nusxasini joylashtirish uchun CTRL tugmachasini bosib turib, kerakli marta joylashtirishimiz mumkin.

Paint muxarririning qo'shimcha imkoniyatlari.

Paint grafik muxarriri yuqarida bayon qilingan ishlarni bajara olishdan tashqari yana bir qator qo`shimcha imkoniyatlarga ega.Ulardan ayirimlarni keltiramiz.

Matnni kiritish va bishimlash.

- 1.Uskunalar panelida A harifi tasvirlangan tugmachani tanlang.
- 2.Matn yoziladigan ramkani hosil qilish uchun kerakli joyda sichqoncha tugmachasining chap tugmasi bosilgan holda diagonal' buyicha talab qilingan o`lchamgacha harakatlantiring.
- 3.Bichimlashtirish panelida yozuv shriftining nomini, o`lchamini va ko`rinishini tanlang.
- 4.Matn yozadigan ramkani kerakli joyda sichqoncha tugmachasini bosing,matnni kiriting.
- 5.Lozim bo`lsa yozuv o`rnini almashtiring, o`lchamini o`zgartiring, matn rangini tanlang.

Fayldagi tasvirni joriy tasvirga joylashtirish.

- 1.Uskunalar panelida to`g`rito`rtburchak sohani ajratuvchi tugmachani tanlang.
- 2.Ko`rsatkichni tasvir joylashtirishi kerak bo`lgan sohani aniqlash uchun suring va bu sohani ajrating.
- 3.»**Правка**» menyusida «**Вставитьизфайла**» buyrug`ini tanlang.
- 4.Joylashtirilishi kerak bo`lgan grafik fayl belgisini toping va ikki marta sichqoncha tugmachasini bosing.
- 5.Joylashtirilgan tasvirni kerakli joyga suring va undan tashqarida ixtiyoriy joyda sichqoncha tugmasini bosing.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Wordpad dasturini yuklang va uning elementlari bilan tanishtiring.
2. Mening mashg`ulotim mavzusida matn kiriting.
3. Ma`lumot kiritish usullarini ko`rsating.
4. Matndan ma`lumotlarni ajratib olish va nusxa olishni bajaring.
5. Matndan ma`lumotlarni almashtirish va qidirish usulini ko`rsating.
6. Yangi hujjatlar yaratish usullarini ko`rsating.
7. Yaratilgan hujjatlarni saqlash usullari.
8. Kalkulyator dasturini ishga tushiring va rejimlar o`rnini almashtiring.
9. Oddiy hisoblashga doir misollar ko`rsating.
- 10.Statistik hisoblashlarni bajarish.
- 11.Muxandislik hisoblashlarni bajarish.
- 12.Sanoq sistemaga doir misollar ishlang va dastur orqali tekshiring.
- 13.Paint grafik dasturni yuklang va menyular bilan tanishtiring.
- 14.Biror tasvir yuklang va tasvir o`lchamlarini o`zgartiring.
- 15.Tasvir masshtabni o`zgartirish va to`rni chiqaring.
- 16.Rangli tasvirni oq-qora tasvirga o`tkazing.
- 17.Ob`ekt yoki tasvirni akslantirish va buring.
- 18.Tasvirni cho`zish, og`dirish va tasvirni olib tashlash usulini ko`rsating.
- 19.Tasvir bulagini(fragmentini) ajratish va tasvir bo`lagini nusxalash yoki joylashtirishni ko`rsating.

20. Matnni kiriting va bishimlash amalini bajaring.
21. Fayldagi tasvirni joriy tasvirga joylashtiring.
22. Fasllar birortasini chizing.

Amaliy mashg`ulot №4 (2 soat)

Mavzu: WORD matn protsessori.

Maqsad: MS WORD dasturi ishlashni o`rgatish.

Texnik va dasturiy ta`minoti: Kom`pyuter, Plakatlar, Windows OS va Microsoft Word dasturi.



Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Microsoft Word ni yuklash usullari. Microsoft Word oynasini tuzilishi.
2. Menyular va qurollar panelidan foydalanib hujjatlarni yaratish, ochish va saqlash.
3. Hujjatning asosiy parametrini o`rnatish.

Amaliy mashg`ulot mavzu bayoni:


1. Microsoft Word ni yuklash usullari. Microsoft Word oynasini tuzilishi.


Microsoft Word ni yuklash usullari quyidagicha:


1. Пуск → Программы → Microsoft Office → Microsoft Word ;
2. Пуск → Программы → Документы →  hujjatli fayl yordamida;
3. Qidirish yordamida Пуск → Найти (Поиск) yordamida
4. Masalalar paneli →  belgisi yoki Пуск → Выполнить Winword → ОК;
5. Ishchi stol → Контекст меню → Создать → Документ Microsoft Word;
6. Funktsional tugmalar yordamida.

Microsoft Word oynasining tuzilishi quyidagicha: Sarlavha satri, Menyular satri, Qurollar paneli, Chizg`ich (Линейка)lar sohasi, Gorizontal va vertical aylantirgich (прокрутки)lar, matn maydoni (ishchi maydon), holat satri.

2. Menyular va qurollar panelidan foydalanib hujjatlarni yaratish, ochish va saqlash.

Yangi hujjatni oynasini yaratish uchun Menyudan : Файл → Создать → Новый документ; Qurollar panelidan Стандартная →  ; Klaviaturadan Ctrl+N funksional tugmalari orqali;


Mavjud faylni ochish uchun Menyudan : Файл → Открыть → Kerakli fayl tanlanadi → Ok; Qurollar panelidan Стандартная →  → Kerakli fayl tanlanadi → Ok; Klaviaturadan Ctrl+O → Kerakli fayl tanlanadi → Ok orqali;

Joriy hujjatni saqlash uchun menyudan : Файл → Сохранить yoki Сохранить как → fayl ga nom berib Сохранить; Qurollar panelidan Стандартная →  ; Klaviaturadan Ctrl+S yoki Shift +F12 tugmalar orqali bajarish mumkin.

Agar Стандартная qurollar paneli mavjud bo`lmasa qurollar paneli joylashgan satrga sichqonchanning Kontekstmenyudan Стандартная ni tanlash yoki Asosiy menyudan Вид → Панели инструментов → Стандартная tanlash mumkin. Hujjat chegara chiziqlarini qo`yish uchun menyudan Сервис → Параметры → Границы текста. Lineykani esa Вид → Линейка tanlash mumkin.

3. Hujjatning asosiy parametrini o`rnatish.

Hujjatning asosiy parametrini o`rnatish uchun Файл→ ПараметрыСтраницы.. buyrug`i tanlash yoki lineykani faol bo`lmagan qismiga sichqonchani chaptugmasini tez 2 marta ketma-ket bosilsa quyidagi dialog oyna paydo bo`ladi.



Bu dialog oynalar yordamida sahifa o`lchamlari, orientatsiyasi, qog`oz formati, sahifani bo`lish kabi amallar bajarish mumkin.

Topshiriqlar:

1. MS Wordni yuklash usullarini ko`rsating.
2. Yangi hujjat oynasini yarating.
3. Oynaga Tarjimai holingizni yozing.
4. Hujjatga turli grafiklarni va hujjat ramkalarini o`rnating.
5. Hujjatdan jumla qidirish, almashtrish, sahifa betini borish usulini ko`rsating.
6. Hujjatning parametrini o`zgartiring.
7. Hujjatni saqlash usullarini ko`rsating (Menyular, piktografik va funksional tugmalar orqali).
8. Hujjatning masshtabini o`zgartiring (Menyular, piktografik va funksional tugmalar orqali).
9. Hujjatni nomerlang va hujjatni oldindan ko`rishni ko`rsating.
10. Hujjatni chop eting. (1 sahifa, 2 sahifali, ajratilganni, sahifa ketma-ketligi bo`yicha, hammasini).

Amaliy mashg`ulot №5 (2 soat)

Mavzu: WORD matn protsessori. Wordda Math Type (Equation) ob`ekti va grafik ob`ektlar bilan ishlash.

Maqsad: MS WORD dasturida ob`ektlarni joylash va ular ustuda amallarni o`rgatish.

Texnik va dasturiy ta`minoti: Kom`pyuter, Plakatlar, Windows OS va Microsoft Word dasturlari.


Amaliy mashg`ulot rejasi:

1. Math Type (Equation) ob`ektini o`rnatish.
2. Math Type (Equation) ob`ektidan foydalanib turli matematik yoki kimyoviy formulalarni yozish va saqlash usullari.
3. Grafik ob`ektlar bilan ishlash (WordArt, Paint)

Amaliy mashg'ulot mavzu bayoni:

1. Math Type (Equation) ob'ektini o'rnatish.


Microsoft Word ga Math Type (Equation) ob'ektini o'rnatish quyidagicha amalga oshiriladi. Dastlab qurollar panelining bo'sh sohasiga sichqoncha ko'rsatkichini olib kelib o'ng tugmasi bosiladi va u yerdan Настройка tanlaniladi.



Hosil bo'lgan muloqot oynadan **Команды** → **Категории** dan **Вставка** → **Команды** dan **Редактор формул** ni sichqonchani chap tugmasini bosgan holda qurollar panelining biror bo'limiga olib boriladi va chap tugmani qo'yib yuboriladi. Masalan **Стандартная** ga joylashtirilganda quyidagicha



Agar klaviatura orqali **Редактор формул**ni bog'lamoqchi bo'lsangiz quyidagicha amal bajariladi.




Dastlab qurollar panelining bo'sh sohasiga sichqoncha ko'rsatkichini olib kelib o'ng tugmasi bosiladi va u yerdan **Настройка** tanlaniladi.

